



Nozima ISLAMOVA,
SamDCHTI tayanch doktoranti
E-mail: anvarsayfullayev76@gmail.com

OG‘ZAKI TARJIMADA NOTATSIIYA TIZIMINING TILGA YO‘NALTIRILGAN SEMANTIK YONDASHUVI
(INGLIZ – O‘ZBEK DIPLOMATIK DISKURS MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz – o‘zbek diplomatik diskursi misolida ketma-ket tarjimada notatsiya tizimining tilga yo‘naltirilgan semantik yondashuv doirasidagi rolini tahlil qiladi. Tadqiqot an‘anaviy mazmunga asoslangan (idea-based) notatsiya modellarning strukturaviy va diskursiv jihatdan sezilarli farqlarga ega bo‘lgan til juftliklarida pragmatik hamda semantik nozikliklarni saqlab qolish uchun har doim ham yetarli emasligini asoslaydi. Taklif etilayotgan tilga yo‘naltirilgan yondashuv ketma-ket tarjimoni o‘qitish va amaliyotida aniqlik hamda pragmatik moslikni oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ketma-ket tarjima, notatsiya tizimi, diplomatik diskurs, semantik yondashuv, pragmatik ma‘no, modallik, tilga yo‘naltirilgan yondashuv, ingliz–o‘zbek tarjima.

ЯЗЫКОРИЕНТИРОВАННЫЙ СЕМАНТИЧЕСКИЙ ПОДХОД К СИСТЕМЕ НОТИРОВАНИЯ В УСТНОМ
ПЕРЕВОДЕ (НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛО-УЗБЕКСКОГО ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА)

Аннотация

В статье рассматривается роль системы нотирования в последовательном переводе с позиций языкоориентированного семантического подхода на материале англо-узбекского дипломатического дискурса. Обосновывается положение о том, что традиционные модели, основанные на передаче «идей», не всегда обеспечивают сохранение прагматических и семантических нюансов при переводе между типологически различными языками. Делается вывод о необходимости рассматривать нотирование не только как вспомогательный инструмент памяти, но и как семантический механизм, направляющий процесс реконструкции смысла в языке перевода.

Ключевые слова: последовательный перевод, система нотирования, дипломатический дискурс, семантический подход, прагматическое значение, модальность, языкоориентированный подход, англо-узбекский перевод.

A LANGUAGE-ORIENTED SEMANTIC APPROACH TO THE NOTE-TAKING SYSTEM IN ORAL
INTERPRETING (BASED ON ENGLISH – UZBEK DIPLOMATIC DISCOURSE)

Annotation

This article examines the role of note-taking in consecutive interpreting from a language-oriented semantic perspective, using English – Uzbek diplomatic discourse as a case study. The study argues that traditional idea-based note-taking models are not always sufficient for preserving pragmatic and semantic nuances in language pairs with significant structural and discourse differences. The proposed language-oriented approach contributes to improving accuracy and pragmatic adequacy in consecutive interpreting training and practice.

Keywords: consecutive interpreting, note-taking system, diplomatic discourse, semantic approach, pragmatic meaning, modality, language-oriented approach, English–Uzbek translation.

Kirish. Hozirgi kunda og‘zaki tarjima zamonaviy xalqaro muloqotning ajralmas qismi bo‘lib kelmoqda, ayniqsa diplomatik diskurs doirasida u yuqori darajadagi aniqlik, ehtiyotkorlik va semantik moslikni talab etadi. Diplomatik nutqlarda axborot nafaqat ochiq mazmun orqali, balki bilvosita ifodalalar, yumshatilgan baholashlar, shartlilik va ehtiyotkorlik bilan beriladi. Shu sababli og‘zaki tarjimada xatoliklar ko‘pincha leksik darajada emas, balki ma‘noning pragmatik va semantik qatlamlarida yuzaga keladi. Og‘zaki tarjimaning ketma-ket turi (consecutive interpreting) tarjimon oldiga murakkab kognitiv vazifalarni qo‘yadi. Bu vazifalarga quyidagilar kiradi:

- nutqni tushunish;
- muhim ma‘no birliklarini ajratish;
- ularni xotirada saqlash va keyinchalik tarjima tilida qayta ifodalash.

Ushbu jarayonda notatsiya tizimi tarjimon xotirasini qo‘llab-quvvatlovchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Biroq, notatsiya ko‘pincha texnik yordamchi vosita sifatida talqin qilinib, uning ma‘no uzatishdagi roli yetarli darajada chuqur o‘rganilmagan. Mavjud tarjimashunoslik adabiyotlarida notatsiya tizimi asosan mazmunga asoslangan (idea-based) yondashuv doirasida izohlanadi. Ushbu

yondashuvga ko‘ra, tarjimon yozib oladigan belgilar so‘zlarni emas, balki mazmuni ifodalashi lozim. Mazkur prinsip keng e‘tirof etilgan bo‘lsa-da, u aksariyat hollarda universal xarakterga ega. Amaliy tajribada bu qarash har doim ham o‘zini oqlamaydi. Ingliz va o‘zbek tillaridan og‘zaki tarjimasida ushbu muammo yaqqol namoyon bo‘ladi.

Diplomatik nutqda, misol uchun, “we express concern” gapi pragmatik yumshatish hisoblanadi, aniqrog‘i, bu ochiq ayblov emas, bosim mavjuddir, lekin bilvosita, umumiy ma‘no kelgusida chora ko‘rilishi kerakligidadir. Ya‘ni, o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilganda “Biz shu masala bo‘yicha xavotirdamiz”, lekin bu neytral eshitaladi va diplomatik bosim yetarlicha sezilmaydi. Shunga pragmatik jihatdan mosroq talqin qilsak shu gapni “Biz shu vaziyat yuzasidan jiddiy xavotir bildiramiz” to‘g‘riroq bo‘lardi, chunki concern so‘zi shunchaki oddiy xavotir emas, balki diplomatik ogohlantirish signalidir. Ikkinchi misol, “we take note” o‘zbek tiliga tarjima qilganda “bayonatlarni qayd etish” deb tarjima qilinadi, lekin bu tarjima haddan tashqari betaraf. Shunga shu gapni “bayonatlarni inobatga olish” deb tarjima qilinsa, shunda bu pozitsiyani ochiq bildirmaslik strategiyasini bildiradi. Uchinchi misolga kelsak, “Any further corporation will be subject to certain conditions” kabi iboralar yuzaki

axborotdan ko'ra ko'proq pragmatik signal vazifasini bajaradi. Aniqlik 'i bu hozircha "HA" ham emas, "YO'Q" ham emas va aytilgan shartlar bajarilmasa jarayon to'xtaydi degani, chunki o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjimai "Keyingi hamkorlik ayrim shartlarga bog'liq bo'ladi" degan ma'noni bildiradi. Agar biz buni pragmatik jihatdan kuchliroq qilmoqchi bo'lsak, demak nazorat va bosim mexanizmlardan foydalanishimiz kerak. Natijada, "Keyingi hamkorlik faqat muayyan shartlar bajarilgan taqdirda davom ettiriladi" deb tarjima qilsak maqsadga muvofiqdir.

Metodologik jihatdan qaralganda, notatsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar semantik yo'qotishlar ko'pincha faktik axborotda emas, balki munosabat va modallik darajasida yuzaga kelishini ko'rsatadi [Dam, 2004; Albl-Mikasa, 2013, b. 24-28]. Biroq, bu kuzatuvlar ko'pincha umumiy xulosalar bilan cheklanib, notatsiya modellari darajasida tilga xos cheklovlar sifatida tizimlashtirilmaydi. Natijada, universal notatsiya prinsiplari strukturaviy va pragmatik jihatdan farqli bo'lgan til juftliklarida, xususan ingliz-o'zbek tarjimasida, har doim ham yetarli bo'lavermaydi. Tarjimon qayd etayotgan "mazmun" tarjima tilida qanday semantik shaklga ega bo'lishini oldindan hisobga olmasa, notatsiya tarjima jarayonida yetarli tayanch bo'la olmaydi. Shu sababli notatsiyani faqat umumiy kognitiv strategiya emas, balki tilga yo'naltirilgan semantik amaliyot sifatida ko'rib chiqish zarurati yuzaga keladi.

Ingliz tilida modallik, baholash va nutq egasining munosabati ko'pincha yordamchi fe'llar (may, might, should), modal konstruksiyalar, diskursiv ravishlar (potentially, officially, cautiously) hamda sintaktik tuzilmalar orqali ifodalanadi [Baker, 2018, b. 32-39]. Misol uchun, "This development may have significant implication for citizens" gapida modal fe'li aniq davoni ifodalaydi, balki u ehtiyotkorlikni va diplomatik yumshatishni anglatiyapti. Natijada, ushbu modal fe'ldan foydalanish orqali tarjimon faktini o'rniga nutq egasining pozitsiyasini ifodalayapti. Keyingi misolimiz diskursiv ravishlarning shartlik rozilikini va asosan ravish mazmuni emas, balki baholash darajasini belgilaydi. "This proposal is potentially acceptable under current regulation" gapida potentially diskursiv ravish shartlik rozilikni ifodalab to'liq qabul qilishni chetga suradi va natijada muzokaraning ma'nosi ochiq pozitsiyada bo'ladi. Sintaktik tuzilmalarga kelsak, bu tuzilmalar asosan nutq egasining ma'uliyatini yumshatish va pasaytirish strategiyasini ifodalaydi [Hyland, 2005, b. 52-55]. Misol uchun, "It should be discussed that more assistance is required" gapida shaxs umuman ko'rsatilmagan, lekin pozitsiyani bildirgan.

Ushbu birliklar odatda gapning bosh yoki o'rt qismida joylashib, tinglovchiga nutqning umumiy ohangi va pragmatik yo'nalishini dastlabki bosqichda anglash imkonini beradi [Baker, 2018, b. 34-37; Gile, 2009, b. 159-161]. O'zbek tilida esa semantik va pragmatik axborot ko'pincha gap oxirida, kontekst va pragmatik anglashuv orqali yuzaga chiqadi. Modal ma'no, ehtiyotkorlik va baholash ko'plab hollarda alohida leksik birlik bilan emas, balki fe'l shakllari, qo'shimchalar, yuklamalar yoki umumiy nutq vaziyati orqali ifodalanadi. Shu sababli o'zbek tilida ma'noning muhim qismi tinglovchi tomonidan butun gap tugagach yoki kengroq kontekst asosida talqin qilinadi [Abdurahmonov, 2008, b. 214-217; Rahmatullayev, 2012, b. 189-192]. Misol uchun, "This agreement may require further consultations" gapi o'zbek tiliga "Bu masala kelgusida ko'rib chiqishi mumkin" deb tarjima qilinadi. Ya'ni, ingliz tilidagi ehtimollikni bildiruvchi predikatdan oldin kelayotgan modal fe'li o'zbek tiliga tarjima qilinganda gapni oxiriga gap tugagach qo'yilyapti va ma'no gap tugagach talqin qilinadi.

Diplomatik nutq o'ziga xos kommunikativ strategiyaga ega bo'lib, unda to'g'ridan-to'g'ri bayonotlardan

ko'ra bilvosita ifodalar, ehtiyotkorlik, shartlilik va neytral baholash ustunlik qiladi. Ingliz tilidagi diplomatik iboralar, masalan, "we take note, we express concern, subject to certain conditions", yuzaki ma'nodan tashqari muayyan pragmatik signalni ham uzatadi. Masalan, "We take note of proposal presented by the delegation" gapida rasmiy javob bor, gapirunchining pozitsiyasi kechiktirilyapti va umuman majburiyat yo'q. Shu gapni o'zbek tiliga tarjima qilganimizda "Biz deligatsiya tomonidan taqdim etilgan taklifni qayd etdik" deb tarjima qilsak bo'ladi va bu tarjimada pragmatic betaraflik va mas'uliyatdan qochish signali to'liq berilmagan, shuning uchun ushbu gapni "Biz deligatsiya tomonidan berilgan taklifni inobatga oldik" deb tarjima qilish pragmatic jihatdan mosroqdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola og'zaki tarjimada notatsiya tizimi orqali ma'no qanday saqlanishi yoki yo'qotilishini aniqlashga qaratilgan bo'lib, sifatli (qualitative), diskursga yo'naltirilgan metodologik yondashuv asosida olib borildi. Ushbu yondashuvning tanlanishi tadqiqot obyektining tabiatidan kelib chiqadi, chunki og'zaki tarjimada ma'no yo'qotilishi yoki o'zgarishi semantik va pragmatik tahlillar asosida aniqlanadi. Dastlab, ingliz tilidagi diplomatik nutqlardan tanlab olingan fragmentlar o'rganildi. Ushbu fragmentlar rasmiy bayonotlar, diplomatik chiqishlar va xalqaro muloqotga xos nutq shakllarini aks ettiradi. Metodologik jihatdan ilmiy kuzatuv uch bosqichda amalga oshirildi:

Birinchi bosqichda ingliz tilidagi diplomatik nutq fragmentlarining semantik va pragmatik xususiyatlari aniqlandi. Bunda nutqning ochiq mazmuni bilan bir qatorda, bilvosita ifodalar, ehtiyotkorlik va baholash unsurlari ko'rsatib berildi. Masalan,

"We remain committed to strengthening regional cooperation while carefully considering the concerns of all parties involved."

Ma'nosi: "Biz hamkorlikni kuchaytiramiz va tomonlar fikrini hisobga olamiz."

Ushbu misolda asosiy mazmun Mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga sodiqlik. Yo'nalishi esa strengthening regional cooperation. Subyektiv munosabat esa remain committed (davomiy siyosiy majburiyat) sifatida ko'zga tashlanadi.

Ikkinchi bosqichda ushbu fragmentlar asosida gipotezali notatsiya (hypothetical) yozuvlari tuzildi. Bu yozuvlar professional og'zaki tarjima amaliyotida qo'llaniladigan umumiy notatsiya prinsiplari (tanlab yozish, semantik siqish, belgilar va fazoviy joylashuv)ga tayangan holda shakllantirildi. Yuqoridagi fragment asosida professional tarjimon ishlatishi mumkin bo'lgan qisqartirilgan notatsiya:

We → biz; commit → sodiq; ↑ coop(reg);careful + all sides

Yoki grafik-fazoviy joylashuv bilan:

coop ↑;biz - sodiq; careful; all sides

Ushbu gapda ↑ - rivojlanish / kuchaytirish belgisi, coop(reg) - regional cooperation (semantik siqish), careful - ehtiyotkorlik; all sides - barcha tomonlar. Bu yerda: Ortiqcha grammatik birliklar tushirib qoldirilgan, asosiy ma'no yadrosi saqlangan va vizual tuzilma tez idrok qilishga moslangan.

Uchinchi bosqichda esa ushbu notatsiya asosida o'zbek tilidagi og'zaki tarjima variantlari tahlil qilinib, ma'no saqlanishi yoki yo'qotilishi holatlari aniqlashtirildi. Tarjimon quyidagicha tarjima qiladi: "Biz hamkorlikni kuchaytiramiz va tomonlar fikrini hisobga olamiz." Bunda remain committed → kuchli majburiyat ohangi yo'qoladi, carefully → diplomatik ehtiyotkorlik kamayadi va nutqning siyosiy ohangi soddalanadi.

Bunda e'tibor uchta asosiy semantik o'lchovga qaratildi. Ushbu o'lchovlar diplomatik diskurs uchun markaziy hisoblangan ma'no qatlamlarini qamrab oladi.

Og'zaki tarjimada ma'noning yo'qotilishi ko'pincha faktik axborot darajasida emas, balki pragmatik va baholovchi ma'no qatlamlarida yuzaga keladi. Ya'ni, nutqning asosiy mazmuni saqlanib qolgan taqdirda ham, nutq egasining munosabati, ehtiyotkorlik darajasi yoki kommunikativ pozitsiyasi tarjimada o'zgarib ketishi mumkin. Amaliy kuzatuvlarga ko'ra, notatsiyada faqat asosiy mazmun yoki mantiqiy harakat (masalan, muzokaralar → davom etadi) qayd etilganda, ushbu mazmunga xos modallik va baholash unsurlari ko'pincha yetarli darajada aks ettirilmaydi. Natijada tarjimon nutqni qayta tiklash jarayonida ushbu yetishmayotgan pragmatik signallarni xotira yoki umumiy kontekst asosida to'ldirishga majbur bo'ladi. Bu esa tarjimada subyektivlik xavfini oshiradi.

Tarjimada ma'no yo'qolishini ko'pincha nutq egasining nuqtai nazari va baholash darajasi bilan bog'liq ekanini takidlanadi. Shuni ham ta'kidlash joizki, tarjimon faktini to'g'ri uzatgan bo'lishiga qaramasdan uning kommunikativ niyatini o'zgartirgan bo'lsa tarjima muvaffaqiyatli hisoblanmaydi. Bu fikr ingliz-o'zbek diplomatik tarjimasida ham to'liq qo'llanishi mumkin.

Amerika va Yevropa tadqiqotlarida ham shunga o'xshash xulosalar uchraydi. Gile (2009) va Albl-Mikasa (2013) notatsiya orqali faqat birlamchi axborotni qayd etish tarjimonning pragmatik xususiyatini kafolatlamasligini ko'rsatadi. Ularning fikricha, tarjimon notatsiyada ma'no uchun muhim bo'lgan signallarni ongli ravishda tanlab kodlashi zarur. Aks holda, notatsiya tarjima jarayonida yetarli tayanch bo'lib xizmat qila olmaydi.

Muhokama. Ketma-ket tarjimada notatsiya tizimini faqat universal kognitiv strategiya sifatida talqin qilish yetarli emas, chunki mazmunga asoslangan yondashuv (idea-based) tarjimashunoslikda muhim nazariy poydevor bo'lib xizmat qilishiga qaramasdan, u barcha til juftliklari uchun bir xil darajada samarali ishlaydi degan qarash muayyan cheklovlariga ega. Tadqiqot natijalari notatsiyani tilga sezgir amaliyot (language-sensitive) sifatida ko'rib chiqish zarurligini qo'llab-quvvatlaydi. Tilga yo'naltirilgan yondashuv mavjud modellarni rad etmagan holda ularni aniq semantik va pragmatik xususiyatlar bilan boyitadi. Ya'ni, notatsiya orqali qayd etiladigan "mazmun"ning o'zi ham tilga bog'liq holda shakllanishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaralganda, notatsiya jarayoni tarjimon uchun nafaqat eslab qolish vositasi, balki tarjima tilida ma'no qanday ifodalanishini oldindan yo'naltirib beruvchi semantik mexanizm vazifasini bajaradi.

Ingliz-o'zbek og'zaki tarjimasida ushbu masala juda ahamiyatlidir, chunki ingliz tilida modallik va nutq egasining munosabati ko'pincha ochiq grammatik va leksik vositalar orqali ifodalansa, o'zbek tilida ushbu ma'no qatlamlari ko'p hollarda gap oxirida, kontekst va pragmatik anglashuv orqali yuzaga chiqadi. Shu sababli notatsiyada ushbu yashirin modallik (implicit) va baholovchi munosabat alohida kodlanmasa, tarjimada nutqning pragmatik yo'nalishi o'zgarib ketishi mumkin. Masalan, "Further arrangements may be

required to discuss before a final decision is made" gapini o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilsak "Yakuniy qaror qabul qilinishidan oldin qo'shimcha uchrashuv talab qilinadi muhokama uchun". Demak, bu misolda tarjima vaqti may modal fe'li ehtimollik va ehtiyotkorlikni bildiradi, lekin notatsiyada alohida qayd etilmasa tarjima tilida ushbu ehtiyotkorlik va ehtimollik yo'qolib, nutq umuman boshqa narsani anglatishi mumkin. Shunga umumiy tahlilda notatsiya belgilarining semantik ishoralar (semantic cues) sifatidagi roli alohida ta'kidlanadi. Notatsiya orqali qayd etilgan belgilar tarjimonga nafaqat "nima aytili", balki "qanday aytili" va "qanday munosabat bilan aytili" degan savollarga javob berishi lozim. Bu yondashuv tarjimonni tarjima tilida mos va pragmatik jihatdan to'g'ri ifoda tanlashga yo'naltiradi. Bunday qarash zamonaviy tarjimashunoslikda kuzatilayotgan umumiy tendensiyalar bilan hamohangdir. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar tarjimada formal ekvivalentlikdan ko'ra diskursiv, kontekst va pragmatik niyatni ustuvor qo'yish zarurligini aks ettirmoqda [Baker, 2018, b. 32-39; Albl-Mikasa, 2013, b. 26-30]. Notatsiyani ham aynan shu kontekstda talqin qilish ketma-ket tarjimada ma'no aniqligini oshirish imkonini beradi.

Shunday qilib, ingliz-o'zbek og'zaki tarjimasida samarali notatsiya universal belgilar tizimiga tayanish bilanlangina cheklanib qolmasligi, balki tilga xos semantik va pragmatik signallarni ongli ravishda hisobga olishi zarur. Tilga yo'naltirilgan yondashuv tarjimonlarga notatsiyani yanada moslashuvchan, kontekstga sezgir va kommunikativ jihatdan ishonchli vosita sifatida qo'llash imkonini beradi. Bu esa, ayniqsa, diplomatik diskursda ma'no yo'qotilishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ingliz-o'zbek og'zaki tarjimasida ma'no yo'qotilishi ko'pincha faktik axborot darajasida emas, balki modallik, baholovchi munosabat va pragmatik ehtiyotkorlik kabi nozik semantik qatlamlarda yuzaga keladi. Ushbu qatlamlar notatsiyada yetarli darajada aks ettirilmasa, tarjimada nutqning umumiy kommunikativ yo'nalishi o'zgarib ketishi mumkin. Bu holat ayniqsa diplomatik diskurs sharoitida jiddiy oqibatlariga olib kelishi ehtimoli bilan xarakterlanadi.

Maqolada taklif etilgan tilga yo'naltirilgan yondashuv mavjud mazmunga asoslangan (idea-based) notatsiya modellarini inkor etmaydi, balki ularni tilga xos semantik va pragmatik ong bilan boyitishni nazarda tutadi. Notatsiya bu yondashuvda faqat eslab qolish vositasi emas, balki tarjimonni tarjima tilida ma'no qanday shakllanishiga yo'naltiruvchi semantik mexanizm sifatida talqin qilinadi. Bu esa tarjimonning pragmatik aniqligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari og'zaki tarjima nazariyasini rivojlantirish bilan bir qatorda, tarjimonlarni tayyorlash jarayonida ham amaliy ahamiyatga ega. Xususan, notatsiya bo'yicha mashg'ulotlarda tilga xos semantik xususiyatlarga e'tibor qaratish tarjimonlarning diskursiv sezgirligini oshirishga yordam berishi mumkin. Shu bois kelgusida olib boriladigan tadqiqotlarda mazkur yondashuvni boshqa til juftliklariga tatbiq etish, shuningdek, uning tarjimonlik ta'limiga ta'sirini chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov, G. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Fan. 2008.
2. Alekseeva, I.S. Professional'nyy trening perevodchika. Sankt-Peterburg: Soyuz. 2004.
3. Albl-Mikasa, M. Developing and cultivating expert interpreter competence. The Interpreters' Newsletter, 2013. 18, 17–34.
4. Baker, M. In other words: A coursebook on translation (3rd ed.). London: Routledge. 2018.
5. Dam, H.V. Interpreters' notes: On the choice of form and language. Interpreting, 6(1), 3–17. <https://doi.org/10.1075/intp.6.1.03dam.2004>.
6. Gile, D. Basic concepts and models for interpreter and translator training (Rev. ed.). Amsterdam: John Benjamins. 2009.
7. Gillies, A. Note-taking for consecutive interpreting: A short course (2nd ed.). London: Routledge. 2017.
8. Hyand, K. Metadiscourse: Exploring interaction in writing. London: Continuum, 2005.
9. Komissarov, V.N. Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty). Moskva: Vysshaya shkola. 1990.
10. Rahmatullayev, Sh. O'zbek tilining grammatik qurilishi. Toshkent: Universitet. 2012.
11. Rozan, J.F. La prise de notes en interprétation consécutive. Genève: Georg. 1956.